

---

## “BILIMLAR KUNI” KENG NISHONLANDI



Bugun Qo'shtepa tumanidagi barcha ta'lim muassasalarida “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” shiori ostida “Birinchi qo'ng'iroq” tadbirlari bo'lib o'tdi.

46-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan mazkur tadbirda Qo'shtepa tumani bosh imom xatibi A.Axmadaliyev ishtirok etdi.

Tadbirda A.Axmadaliyev istiqlol yillarida farzandlarimizga yuksak ilm-fan cho'qqilarini egallashlari, sog'lom va barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha shart-sharoit yaratib berilganligi haqida aytib o'tdi. O'quvchilarni yangi o'quv yili bilan tabriklab, Prezident sovg'alarini bolajonlarga taqdim etishda qatnashdi.

### **Qo'shtepa tumani hokimligi**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-09-06 16:18:38